



**MAMLAKATIMIZDA ILM-FAN VA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA  
XOTIN-QIZLARGA YARATIB BERILGAN KENG IMKONIYATLAR.**

**Ochilova O’giloy**  
*QarDU tarix fakulteti I kurs magistranti*  
УДК 330.190.2:342.82(045)  
Orcid: 0009000695457469

**Annotatsiya:** Maqolada mustaqil O’zbekistonda xotin-qizlarga munosabat, ularga ilm-fan va ta’lim sohasida berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar haqida bayon qilingan. Jamiyatimizda ayollarning ijtimoiy va siyosiy jabhalarda yetakchi o’rinnarni egallashiga qaratilgan tizimli islohotlar yoritilgan. Ilm-fan tarmoqlarida ayollar faolligi oshib borish dinamikasi berilgan.

**Kalit so’zlar:** jamiyat, xotin-qizlar, ayollarga e’tibor, ta’lim, farmon, qonun, mukofot, e’zoz, imkoniyat, davlat siyosati, ilm-fan.

**Аннотация:** В статье описано обращение с женщинами в независимом Узбекистане, возможности и привилегии, предоставленные им в сфере науки и образования. В нашем обществе освещены системные реформы, направленные на то, чтобы женщины заняли лидирующие позиции на общественно-политическом фронте. Рост активности женщин в научных сферах дал хамскую динамику.

**Ключевые слова:** общество, женщины, внимание к женщинам, образование, указ, закон, награда, честь, возможность, государственная политика, наука.

**Abstract:** The article describes the treatment of women in independent Uzbekistan, the opportunities and privileges given to them in the field of science and education. In our society, system reforms are created for women leading the positions in social and political spheres. Increasing activity of women in scientific fields has given a boorish dynamic.

**Key words:** society, women, attention to women, education, decree, law, award, honor, opportunity, state policy, science.

**Kirish** O’zbekistonda ilm-fan rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ilmiy va innovatsion faoliyatning hukumat tomonidan qo’llab-quvvatlanishi, barcha sohalarda mutaxassis kadrlar tayyorlash kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Bu jarayonda xotin-qizlar ham faol ishtirok etib, olib borilayotgan islohotlarda o’zlarining salmoqli hissalarini qo’shamoqdalar. Buyuk ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat: “Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim”, deb yozgan

edi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquq va manfaatlarini ta’minlash, munosib mehnat va turmush sharoitini yaratish, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, jamiyatning ijtimoiy hayoti va davlat qurilishidagi ishtirokini yuksaltirish, liderlik, tashkilotchilik, tadbirkorlik qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi.” – deb takidlaydilar

**Tadqiqot metodologiyasi** Yurtimizda xotin-qizlarning davlatni boshqarish, ta’lim-tarbiya ishlari, tadbirkorlikda faol ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi. Qizlarning yaxshi ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi Prezidentimizni hamisha o‘ylantiradigan masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj xotin-qizlarimizni bugun faol qilib, qiyin vaziyatida ularni o‘qitib, kasb-hunarli qilib, muammolarini o‘zлari yengishga asosiy e’tibor qaratilmoqda, va ijtimoiy xodim sifatida bu bizning ustuvor maqsadimiz. Zamonamizni o‘tmish tarix bilan taqqoslasak, xotin-qizlarimizning bugungidek erkinligi, huquq va imkoniyat jihatidan tengligi taqsinga sazovordir. Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 1-mart kuni xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagи mavqeini yanada mustahkamlash masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o’tdi. Bu yig‘ilishda xotin-qizlar uchun ta’lim sharoitlarini kengaytirish bo‘yicha tarixiy qarorlar qabul qilindi[1].

### **Natijalar va muhokama**

Jumladan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqildi. Dastur doirasida, poytaxtimizda asosan xotin-qizlarni o‘qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to‘qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etildi. Paxta-to‘qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida joylarda universitetning texnikumlari ham ochildi.

Monomarkazlar va oliygohlar qoshida Malakani baholash markazlari tashkil etish, ayollarni talab yuqori bo‘lgan ishchi kasblarga o‘qitish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi

Prezidentning 2022-yil 18-iyuldagи qaroriga binoan, to‘lov-kontraktda o‘qiydigan xotin-qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga imtiyozli foizsiz ta’lim krediti berish joriy qilindi. Buning uchun, joriy yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so‘m, kelgusi besh yilda 8 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi[2].

2022-yildan boshlab, magistraturada o‘qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to‘liq davlat byudjetidan qoplab beriladigan bo‘ldi. Shuningdek, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo‘qotgan talaba qizlarning ta’lim kontrakti mahalliy byudjetdan to‘lanadi. Magistraturada o‘qiyotgan yoshlarimiz orasida qizlarning ulushi yanada ortib bormoqda. [3]

Jumladan, Qarshi davlat universitetining tarix yo‘nalishi magistratura mutaxassisligiga 2023-yilda 7 ta xotin-qizlar qabul qilingan bo‘lsa, 2024-yilda esa 18 ta xotin-qizlar qabul qilindi.

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Oliygochlarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo‘nalishida ish olib bormoqda. Jamiyatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagи ”Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirishga chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-87-son Farmonining 5.1-bandiga asosan Innovatsion rivojlanish agentligi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda amaliy va innovatsion loyihibor bo‘yicha “Olma ayollar” tanlovini o‘tkazib borishi belgilangan [4].

Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta’lim, xususan, oliy ta’lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli xotin-qizlar bu yo‘nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. Buning amaliy ifodasini so‘nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o‘z sohalari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgani misolida ko‘rish mumkin. Birgina 2023-yilning o‘zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgani barchamizni mamnun etadi[4].

Eng muhimi, qizlarimiz o‘rtasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlargacha qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta’lim olgan yoshlarning 47 foizi, ya’ni qariyb yarmini qizlar tashkil etgan.

Mustaqillik yillarda 2 ming 180 nafardan ortiq xotin-qizlarimiz yuksak davlat mukofotlariga sazovor bo‘lganligi ularning ilm-fanga naqadar chanqoq ekanligidan dalolat beradi. Ularning orasida o‘nlab O‘zbekiston Qahramonlari, Fan arboblari, Xalq o‘qituvchilari, Xalq shoirlari, Xalq artistlari borligini alohida ta’kidlab aytmoqchiman. Bugungi davramizda turli jabhalarda astoydil mehnat qilayotgan ana shunday jonkuyar, oqila, mehr-oqibatli ayollarimizni, ularning davomchilari bo‘lgan iste’dodli qizlarimizni ko‘rib turganimdan xursandman. Ularning barchasi O‘zbekiston insoniy salohiyatining oltin fondini tashkil etadi, desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy bo‘limlari qoshida “Huquqshunos ayollar”, “Ilm-fan va ayol”, “Ijodkor ayollar”, “Tashabbuskor ayollar”, “Ayol va salomatlik”, “Faxriy ayollar” jamoatchilik uyushmalari tashkil etildi. “Yil ayoli”, “Ibratli oila” tanlovlari o‘tkazilmoqda. Eng asosiysi, amalga oshirilgan ana shunday muhim chora-tadbirlar bugun o‘z samarasini bermoqda[5].

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va yurtimizdagи siyosiy partiyalar o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytirilib, 3 mingga yaqin yetakchi xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirilgani e’tiborga loyiqidir. Ayni vaqtida ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlab borish, ularni o‘qitish, malakasini oshirish tizimi yaratilmoqda. Bularning barchasi mamlakatimizda xotin-qizlar harakati katta salohiyat va istiqbolga ega ekanini ko‘rsatadi

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ilm-fan rivojida munosib hissasini qo‘sib kelayotgan qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning noyob qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida 1999-yil 10-

iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti” Zulfiya nomidagi Davlar mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g’risida”gi PF-2326-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga ko‘ra, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi. Ushbu mukofot asosan beshta yo‘nalish bo‘yicha o’tkazilib, unda a’lo xulqi, olivjanob insoniy fazilatlari, zukkoligi, bilimdonligi va alohida iste’dodini namoyon etishi uchun adabiyot, san’at, fan, ta’lim, madaniyat yo‘nalishlarida tanlov asosida qizlar aniqlab olinishi belgilandi. Zero, ushbu say-harakatlarning zamirida xotin-qizlarning boshqaruv tizimidagi faolligini oshirish, rahbar ayollar uchun kadrlar zahirasi yaratishdek muhim vazifa turadi [6].

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti 14 yoshga to’lgan va 30 yoshdan oshmagan qizlarga berilshi belgilandi. Jumladan, oliy ta’limning bakalavriat bosqichida tahlil olayotgan talaba qizlar ushbu mukofot bilan taqdirlansa, ularga magistratura bosqichida imtihonlarsiz davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinish tartibi joriy etildi [6].

**Xulosa va takliflar** Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, bugungi kunda davlatimiz tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyatlardan xotin-qizlarimiz unumli foydalanmoqdalar. Jamiyatda o‘z o‘rnini topib, davlatimizning yanada taraqqiy etishi uchun unumli mehnat qilmoqdalar. Ta’lim olayotgan, mehnatda band bo‘lgan xotin-qizlarning intilishlari va qobiliyatları doimo qo‘llab-quvvatlanishi ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022 1-mart kuni xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi hamda ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash masalalari bo‘yicha videoselektor yig’ilishi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-iyuldag“Oliy va professional ta’lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-323-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdag“Davlat oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichida ta’lim olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lab berish chora tadbirlari to‘g’risida”gi 447-sonli qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdag“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirishga chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PF-87-sonli Farmoni
5. O.Raxmonkulova O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy soha islohotlarida xotin-qizlarning o‘rni (Janubiy viloyatlar misolida, 1991-2020 yy.)
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyundagi “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g’risida”gi PF-2326-sonli Farmoni//<https://lex.uz/docs/213812>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 2018-yil 8-mart